

“ERKIN VOHIDOVNING MATMUSA OBAZI TAHLILI”
(maqola)

Ergasheva Nilufar Akramjon qizi

*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek
filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: O‘tgan asrlarda shoir va yozuvchilarimizning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, shu jumladan Erkin Vohidov ijodida Matmusa obrazining o‘ziga xosligi, “Donish qishloq latifalari” asari tahlili, Erkin Vohidov ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat, sadoqat va uyg‘oqlikka chorlash ruhida tarbiyalash borasidagi ahamiyati.

Kalit so‘z: Nasriddin Afandi, Matmusa, kulgi motivi, donishmand, jo‘yak, charxpalak, narvon, sadoqat ruhi.

Adabiyotga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham yuqori darajada ekanini yana bir isboti sifatida 2020 -yil 20 -may kuni “Adiblar xiyoboni” ning ochilish marosimi o‘tkazildi. Prezidendimiz Sh.Mirziyoyev bu marosida: *“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar pul topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanishi kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot uchun hamma sharoitlarni yaratamiz-”*, deya rost gaplarni aytgan edi.

XX asr o‘zbek adabiyotida realistik qarashlar, badiiy adabiyot va ijtimoiy ayotning yaqinlashuvida o‘ziga xos davr bo‘ldi. Xalq hayoti, insonlar taqdiri, qiyinchiliklar davri va zamon muhiti tasviri asarlarda o‘z aksini topdi. Bu hodisa adabiyotning barcha turlari: nasr, nazm va dramaturgiyada birdek yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘tgan asrning 70-80-yillarida o‘zbek adabiyotida qaynoq muhit yuzaga keldi. Bu hodisa o‘z-o‘zidan, osmondan tushgandek sodir bo‘lgan emas. Mafkuraviy g‘oya sabab adabiyotga bo‘lgan mehr-muhabbat va qiziquvchanlik sovib borayotgan bir vaqtda Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf kabi shoirlar o‘z asarlari orqali kishi ruhiyatiga iliqlik olib kira oldi. Buyuklar kun kelib tan olinishi, e’tirof etilishi shubxasiz edi. Shoir Xurshid Davron o‘z maqolalaridan birida shunday deydi: “Adabiyotda 30- yillar qatag‘onidan keyin paydo bo‘lgan jarlikni to‘ldirganlardan Abdurauf Fitrat-u Abdulla Qodiriy , Abdulhamid Cho‘lpon-u Usmon Nosirdek tengsiz shoirlar qalam surgan bo‘lsa XX asr o‘zbek she‘riyatining oltin davriga ko‘prik ulagan shoirlarning biri Erkin Vohidovdir”.

Zamon bilan hamnafas ravishda ijod qilgan, zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Erkin Vohidov o‘z ijodiy davrini XX asrning 60- yillaridan

boshlagan. Shoirning ijod yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, asarlarida Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat, inson hayotini har narsadan ustun qo‘yish yetakchilik qilganligining guvohi bo‘lamiz: *“Shoir uchun el nazaridan qolish- eng oliy jazo. Qolganini iztirob demasa ham bo‘ladi”*,-deb yozganlaridan ularni anglash qiyin emas. Erkin Vohidov – qo‘rqmas shoir, keskir zabon, o‘tkir qalam ustasi. Uning ijodida komedik ruhdagi asarlari yuksak o‘ringa ega. Birgina *“Donish qishloq latifalari”*ga e‘tibor qaratsak. Bu asarida latifa yordamida davrning ijtimoiy yutuq va kamchiliklari yumorga o‘rab berilgan. O‘zbek xalq o‘g‘zaki ijodida Nasriddin Afandi o‘z o‘rniga ega donishmand obraz hisoblanadi. Turli xalq va millatga mansub bo‘lsa-da, Aldarko‘sa, Mirali, mulla Mushfiq kabi donishmandlik obrazlari ham mavjud. Erkin Vohidov esa adabiyotga Nasriddin Afandining yangi modeli, ya‘ni zamonaviy ko‘rinishi - Matmusani olib kirdi. Bu esa ijodkorning adabiy kashfiyotchilik qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. *“Donish qishloq latifalari”*ni o‘qib hammaning yuziga kulgu yuguradi. *“Vaholanki men ularni alam bilan yozganman”*,- deydi shoir. *“Matmusaning latifalari”* turkumini o‘qir ekanmiz, asardagi ro‘y bergan voqealarga e‘tiborsizlik bilan shunchaki ko‘z yugurtirib o‘tib ketish mumkin emasligiga ishonish hosil qilamiz. Voqealarning biri boshqasiga qaraganda kulgili va qiziqarlilik ko‘rinaveradi, ammo bu orqali shoir aql-idrokka qarshi, teskari ishlar el boshiga uqubat va kulfatlar keltirishini aytib o‘tmoqchi bo‘lgan. Dastlab Matmusaning qishloqdoshlarining ahvoli shunday tasvirlanadi:

*“Donishqishloq degan joy
Bordir bizning tomonda.
O‘sha qishloq ahlidek
Dono xalq yo‘q jahonda.
Jo‘yak tortib tomiga,
Makka ekkan o‘shalar.
Kalishini perronga
Tashlab ketgan o‘shalar.
Yuz qop ganchni bir yo‘la
Suvga qorgan u yerlik.
Echkini sartaroshga
Olib borgan u yerlik”*.

Bulardan tashqari minorani *“teskari turib qurilgan quduq”*ga, temir yo‘lni esa *“tayyor turgan narvon”*ga o‘xshatganlar. *“Pashshaga sopqon otgan”* va *“chivinga qopqon qo‘ygan”* dono xalqdan Matmusadek donishmand chiqishi tabiiy hol. Kuldirish hech qachon oson bo‘lmaydi. Hazilni orti zil ekanini, og‘ir ekanini, chin haqiqat ekanini uncha –muncha odamlar angamaydi. Endi bunday ming karra mashaqqat ortguvchi asarlarni yozishni aytmasa ham bo‘ladi. *“O‘xshatib kuldirishni uddalagan adib, zarurat tug‘ilganda, “jizillatib chaqish”ni ham joyiga qo‘ya oladi.-”* , deydi

Xurshid Davron. Buning isboti sifatid “Matmusaning uylanishi”ni o‘qib ko‘rishimiz kifoya. Matmusa shaharda bir tannoz bilan tanishib, qishloqqa yetaklab qaytadi. Qarangki, uylanganiga uch oy to‘lgandayoq farzand ko‘radi. Yo‘q, biz kutgan to‘s-to‘palon yuz bermaydi, aksincha Matmusaning oilasida ham, Donishqishloqda ham ko‘tarinki bir holat yuzaga keladi. Ya‘ni, elqatori to‘qqiz oyda bola ko‘rib yurgan donishqishloqliklar shaharlik kelinning “zarbdor”ligidan hayratda, bu mo‘jizaga dahldor bo‘lgan Matmusaning dimog‘i osmonda. Mahalliy matbuotda “Ilg‘or o‘rnak – qishloqqa” degan dabdabali maqola bosiladi, erkaklar bu tashabbusni qo‘llab, gazetada chiqishlar qilishadi. Ko‘chalarda “Yangilikka – katta yo‘l”, “To‘qqiz oyni – uch oyda!” yanglig‘ shiorlar paydo bo‘la boshlaydi. Erkin Vohidov mahoratli adib. U Matmusa timsolida bir yonda sodda insonni yana bir tomonda yangi, o‘zgacha muammolarga ters qaraydigan insonni gavdalantirdi. Muallif qo‘lidagi qalam go‘yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi uning she‘rlari yakka so‘zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, ko‘p ovozli simfoniyaning eslatadi, publitsistik maqolalarini o‘qiganda inson ko‘ngil xazinasining, tuyg‘ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi. Erkin Vohidov aytgan haq so‘zni aytguvchi Matmusalar yashayversin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Vohidov, Tabassum. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010